

## BOSHLANG'ICH SINFLAR TA'LIMIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANISHINING ASOSIY AHAMIYATI

**Xaltursunova Gulchexra Inaganovna**


Toshkent viloyati Yuqori chirchiq tumani

2- o'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.*


**Kalit so'zlar:** *nutq, nutq madaniyati, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, metodika, ona tili darslari*

Boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich sinf O'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o'rin egallagan. Forobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmunder va go'zal nutq sohibi bo'lish haqida shunday deydi: - Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya'ni substansiya (mustaqil, o'z-o'zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon)lariga ism




beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman. Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidentiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm logikadir: u ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logic figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz. Nutq atamasi arabcha so'zdan olingan bo'lib, so'zlash, nutq; gapirish qobiliyati ma'nosini bildiradi. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. Ma'lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o'rni va roli qadimdan ko'pchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida nutqni mahnaviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi: —...so'zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi.

M.Koshg'ariyning —Devon-u lug'otit turk asarida —Adab boshi – til maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog'li ahamiyatli ekanligiga urg'u berganini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so'z orqali a'yon bo'lishini aytib, nutqning ravon bo'lishiga da'vat etadi: —o'quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali



topadi. Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payidan bo'lg'in. Kaykovus o'zining —Qobusnoma asarida so'zlash madaniyati quyidagicha e'tirof etadi: —... xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so'zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar, har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lug'at boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi.

Boshlang'ich sinf ona tili dasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so'z yasalishi, morfemik (so'z tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o'quvchilarning nazariy tushunchalarni o'zlashtirishlariga yordam berishi, lug'atini boyitishi, bog'lanishli nutqini o'stirishi jihatidan keng qamrovli bo'lib, o'quvchilarning tilni har tomonlama O'zlashtirishlarini ta'minlashini nazarda tutadi. Ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf Ona tili darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning o'quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o'stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatdi. Ona tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, O'quvchilar lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo'la olmaydi. Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga mo'ljallangan terma to'qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog'lanishli nutqni egallashga ijobiy ta'siri kam. Oddiy so'zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o'quvchi nutqini boyitish uchun manba bo'la olmaydi. O'quvchilarning o'zbek



adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog'liq. Darslarni didaktik o'yinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Masharipova U. Formirovanie kommunikativnoy kompetentsiy mladshix shkol'nikov na osnove razvitiya svyaznoy rechi // XIII mejdunarodnoy konferentsii —Obrazovanie cherez vsyu jizn': neprerqvnnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya №13-ya mejdunarodnaya konferentsiya. Sank –Peterburg. (LGU) 2015. –S. 116-117
2. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O'qituvchi. 1995. 80-b
3. Nisanbayeva A.Q. O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari